

ALFONS DODENING „SO‘NGGI SABOQ” HIKOYASIDA MILLIY TIL QADRI

Ug‘iloy Saydullayeva Obidjonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alfons Dodening „So‘nggi saboq” hikoyasi tahlil qilingan. Tahlillarda asosan, mustamlakamchilar tomonidan milliy tilning yo‘qotilishi muammosiga adibning munosabati, shuningdek, asar qahramonlarining xarakter xususiyatlariga ahamiyat qaratilgan. Bundan tashqari hikoyada adibning vaqtning qadrga yetishga doir mulohazalariga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Alfons Dode, „So‘nggi saboq”, hikoya, milliy til, Vatanga sadoqat, vaqt qadri, mas’uliyat, qadriyat, maktab, dars, ilm, burch, erk.

Til – bu qalbimiz oyinayi jahoni, u bor ekan biz fikrlaymiz, muloqotlashamiz va hattoki, bir birimizni tushunamiz. Bejizga Navoiy bobomiz aytmagan:

Tengriki insonni qilib ganji rost,

So‘z bila hayvondin, anga ehtiros.

Ya’ni, buning ma’nosi shundan iboratki: „Alloh insonga shunday ne’mat berdi, uni hayvondan ajratib turuvchi tilidir”. Shunday ekan, til har bir jamiyat a’zosi uchun zarur. Darhaqiqat, biz tilimizni onamizga qiyoslab, uni ona tili deymiz. Shuning uchun ham uni onamizdek qadrlashimiz va keyingi avlodga sof holda yetkazishimiz zarur. Mashhur fransuz yozuvchisi Alfons Dode o‘zining asarlari orqali kitobxon yoshlar ko‘ngliga vatanni sevish, uni ardoqlash va o‘sha yurtning o‘z ona tilini asrashga chorlaydi. Yozuvchi qo‘liga qalam olar ekan, o‘z tili, balki, butun dunyoning ona tili haqida o‘ylaydi va qog‘ozga shu so‘zlar asosida hikoya yozish uchun sarlavha bitadi: „So‘nggi saboq”. Darhaqiqat, yozuvchining eng mashhur asari ham shu „So‘nggi saboq” hikoyasidir. Bu hikoyada bugungi kundagi ayni holatlar ham tasvirlangani ko‘zga

tashlanadi. Chunki, hozirgi kundagi bolalar darslarga o'z vaqtida qatnashmasdan, faqat o'yinga berilib ketishmoqda va bu holatlarni oldini olishga yordam beruvchi dastro'mol deb aytsak bo'laveradi. Muallifning ushbu hikoyasi Frans ismli bola tilidan aytilgan. Frans doim darsga kechikib kelar, chunki u yo'lda ketar chog'ida turli xil voqealarni kuzatishga qiziqar edi. Bu safar ham u maktabdan kech qoldi va yo'lda e'lonlar taxtasi yonida to'plagan odamlarni ko'radi. Ammo, insonlarning ko'pligidan e'lon nima haqida ekanini bilmay yo'lida davom etadi. U maktabga yetib borganida o'ylaydiki: „Odatda, dars boshida ko'chaga eshitarli darajada shovqin ko'tarilardi. Bolalar quloqlarini qo'llari bilan yopgancha, o'tilgan mavzularni g'o'ng'illab takrorlashar, partani do'mbira qilib chalishar, muallimimiz esa chizg'ichi bilan tinchlantirishga urinardi:

–Sekinroq, sekinroq, sekinroq!”

„Mana shu shovqin - suron ostida joyimga sezdirmasdan o'tirishni mo'ljallagandim”. Lekin, u xohlagandek bo'lmaydi, chunki shu paytda maktab yakshanba tongidek jimjit edi. Frans darsga qay tariqa kirishni o'ylar va qo'rqar edi, vaholangki u uyga vazifalarini bajarmagan edi. So'ng u sinfga kelib kirishni so'radi, mosye Amel esa muloyimlik bilan ruxsat berib darsni usiz boshlaganini aytdi. Darhaqiqat, asarda sinf xonasi, undagi har bir narsa aniq tasvirlangan, hattoki, bu darsga har kungidan boshqacha, bayramona kiyinib kelgan muallimning ust boshi batafsil ta'riflanadi. Mosye Amelnini bu turda kiyinishimiz sababi bu oxirgi marta fransuz tili darsining o'tilishidir. Chunki, hikoyada Fransiyaning Elzas va Lotaringiya hududi nemislar tomonidan qaram bo'lgan edi. Mosye Amel o'z dars mashg'ulotini oxirgi marotaba o'tar ekan, o'zgacha mas'uliyatli va qat'iyatli ko'rinardi. Shuni aytish kerakki, fransuz xalqi bu davrda og'ir musibatni boshdan o'tkazar ekan, xuddi o'z ona tillarini qabrga qo'yayotgandek bo'lganiga, ayni paytda sinf xonasida yoshi ancha katta kishilar ham o'tirishganiga alohida urg'u berilgan. O'zining qilgan qilmishidan pushaymon bo'lgan Frans vaqtini behudaga sarflab fransuz tilini o'rganmaganiga amin bo'lgan edi. Chunki, Frans darsda o'ylanib o'tirarkan birdan unga o'zining ismi eshutiladi va xayoli buziladi. Unga o'tgan mavzudagi savol beriladi, u javob berolmaydi. Shunda muallim

unga: „— Men seni koyimayman, Frans o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganligingni bilsang kerak. Har safar „Qayoqqa ham shoshildim, ertaga yodlayman" deb o‘ylaysan. Oqibati nima bo‘ldi? Biz elzasliklar o‘qishni doimo ortga suramiz — fojiamiz ham ana shunda. Sizlar o‘zingizni fransuz deb bilasiz, vaholanki, o‘z ona tillaringda to‘g‘ri gapirishni ham, yozishni ham eplay olmaysiz. Ota - onalarimiz o‘qishimiz haqida ko‘p ham qayg‘uraverishmaydi" — deya boshqalarga ham uqtiradi. Aslida qahramongan qo‘yilgan ism ham bejizga tanlanmagan. U “Frans” davlat nomiga va tiliga uyg‘un. Ammo hikoya qahramoni buni hech qachon o‘ylamagan, vatanini, tilini ehtimol yaxshi ko‘rar, ammo ularni doim ham qadriga yetavermagan. Bugun esa buni anglagan vaqtda kech bo‘lgan, davlat va til qo‘ldan ketgan edi. Endi qahramon o‘z tilida erkin gaplasha olmas, o‘rganish uchun beminnat va bexavotir darslar topa olmas edi. O‘z yurtida bo‘lsa-da, boshqa xalq tilini o‘rganishga, o‘qishga majbur edi. Yozuvchi qahramonni koyimaydi, ayblamaydi, jazolamaydi. Faqat qahramonni bu befarqligi va dangasaligi uchun armonlar girdobiga qoldiradi.

Darhaqiqat, yana muallimning „fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekani", uni asrash lozimligi, „chunki mustamlaka xalq o‘z ona tili yordamidagina yorug‘likka chiqa olishi” to‘g‘risidagi fikrlar katta ahamiyatga egadir. Mosye Amel dars mashg‘ulotini yakunlar ekan, o‘quvchilar doimo esda saqlashi va butun umr yodiga muhrlanib qolishi uchun doskaga katta-katta qilib „Yashasin Fransiya” deb yozib qo‘ydi.

Xulosa qilib aytganda, adib bu asarda xalqning vatan, ona tilga bo‘lgan munosabati go‘zal badiiy ifodasini topgan. Qaysiki millat o‘z tilini o‘rganmasa u o‘zgalar tilida sayrashga majbur etiladi. Shuningdek, vaqtning qadriga yetish va har daqiqani behuda sarflamaslik ilm olish barchaning burchidir. Vatanini, tilini sevgan, ilmi kuchli bo‘lgan davlatni hech bir kuch yenga olmaydi. Chunki, har bir millatni dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Biz ona tilimizni asrasak, u bizga shunchalik sir-sinoatlarini ochib boraveradi. Har bir davlatning o‘z tili bor, ularning barchasi ona tilini saqlab qolishi uchun nutqda ishlatiladigan gaplarga, hatto rivojlanishiga har bir shaxs o‘z hissasini qo‘shar ekanlar. Chet davlatdagi kishilar o‘z

yurtida, o'z tilida boshqa tilni qo'shib gapirishmas ekanlar, agar qo'shib gapirsa, u tilni buzganlikda ayblanar ekan. Bizda esa, aksincha, bu kabi tilni behurmat qilishga hech kim e'tibor qaratmaydi. Vaholangki, yurtimizda kuzatishimiz mumkin har bir qadamda do'konlarning, barcha mehmonxonalarning nomlari chet tilida yozilgan va hatto o'zimizning nutqimizga ruscha yoki inglizcha gaplarni qo'shib gapiramiz. Agar bu holat davom etaversa biz o'z tilimizni qabrga qo'yishimiz amrimahol. Shunday ekan, har bir inson o'z tilida sof va mukammal gapirishlari zarur. Axir dunyoda o'z milliy tili bo'lmagan davlatlar qancha, bizning o'z ona tilimiz bo'la turib, unda to'g'ri gapira olmasak, nahotki tilimizni rivojlanishini istamasak. Axir bejizga aytishmagan-ku, qayerda til mukammal bo'lsa, o'sha yerda o'sish va rivojlanish bo'ladi.

Alfons Dode o'zining asari yordamida butun dunyo xalqiga o'z ona tilini asrashi va uni vaqt borida rivojlantirish kerakligini ta'kidlamoqda. Biz bu asardan xulosa chiqarib o'zbek ya'ni ona tilimizni kelajagini o'ylashimiz zarur. Darhaqiqat, bizning yurtimizga kelgan chet elliklar o'z tillarida gapirishadi-yu, nega biz ularning yurtiga borsak ularning tilida gapirishimiz kerak. Mana shu holatlarga e'tibor bermasligimiz tufayli biz o'z tilimizni yo'qotmoqdamiz.

Shunday ekan, bu asarni barcha birdek o'qishi va keyingi avlodga yetkazishi zarur, toki ular ham buni o'qib, o'z ona tilining qadrini bilishi va uning yo'qolmasligi uchun harakat qilishsin. Chunki, milliy til bor ekan, millatning g'ururi va o'zligi bitmas va tugalmas.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot 10-sinf uchun darslik. 2-qism. Toshkent- 2017.
2. Sh. Sa'diyev. Metodik qo'llanma. Toshkent- 2019.
3. B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. 10-sinf. Adabiyot- 2.